



DRAMATURGIYADA LIRIZMNING EMOTSIONAL-ESTETIK FUNKSIYASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20532128>

Norboyeva Zarina Yusuf qizi

Turon universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dramaturgiyada lirizmning emotsional-estetik funksiyasi masalasi tahlil qilinadi. Dramatik asarlarda lirik unsurlarning qo'llanishi, ularning qahramon ruhiyatini ochishdagi o'rni hamda asarning badiiy ta'sirchanligini oshirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, lirizmning dramatik konflikt, poetik nutq va emotsional muhit bilan uyg'unligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi. Tadqiqotda o'zbek dramaturgiyasidagi lirik-dramatik xususiyatlar ayrim badiiy namunalari, xususan, Abdulla Oripovning "Sohibqiron" dramasi misolida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: drama, lirizm, dramatism, emotsional funksiyalar, estetik funksiya, poetik nutq, dramatik konflikt, lirik-dramatik kompozitsiya

Badiiy adabiyotning har bir turi inson ruhiyati va hayotiy voqelikni o'ziga xos usulda aks ettiradi. Lirikada voqea tasviri ikkinchi o'rinda turadi. Asosiy e'tibor inson qalbida yuz berayotgan tuyg'ular, o'y-fikrlar va ruhiy holatlarga qaratiladi. Shoir tabiat manzaralari, muhabbat, sog'inch, vatan, do'stlik yoki hayot haqidagi qarashlarini o'z hislari orqali ifodalaydi. Shu sababli lirika o'quvchiga juda tez ta'sir qiladi. Uning qalbida ham turli kechinmalar uyg'otadi. Drama esa voqea, harakat va konfliktga asoslanganligi bilan boshqa janrlardan ajralib turadi. "Dramaning tasvir predmeti-harakat, u obyektning plastik obrazini yaratadi, dramada subyekt-ijodkor shaxsi ham obyektga singdirib yuboriladi. Agar bular dramaning turga xos belgilovchi xususiyati bo'lsa,

dramatik asarning qurilishi, poetik o'ziga xosligini belgilovchi eng muhim xususiyat uning sahna uchun yaratilishidir"⁷¹. Biroq dramatik asarning ta'sir kuchi faqat keskin syujet yoki to'qnashuvlar, shuningdek, sahnaviy xosliklari bilan belgilanmaydi. Unda qahramonning ichki olami, ruhiy iztiroblari, hissiy kechinmalari ham muhim estetik qatlam sifatida namoyon bo'ladi. Ana shu nuqtada dramaturgiyada lirizm hodisasi alohida badiiy ahamiyat kasb etadi. Lirizm dramatik asarga hissiy chuqurlik olib kiradi. U qahramon ruhiyatining tashqi harakat bilan ifodalanishi qiyin bo'lgan nozik qatlamlarini ochishga xizmat qiladi.

⁷¹ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. T.:2004.206-b



“Lirikada subyekt bitta–shoirning o‘zi. Obyektib olamdagi u yoki bu narsa va hodisa o‘z in‘ikosini dastlab shoir ruhiy olamida topadi. Unda voqelikka nisbatan faol qo‘zg‘olish yuz beradi, ta‘sir lanish kuchayadi”.⁷² Dramada voqealar ko‘pincha konflikt asosida rivojlansa-da, inson qalbidagi sukut, armon, iztirob yoki ichki qarama-qarshiliklar aynan lirik unsurlar vositasida yanada ta‘sirchan ifodalanadi. Shu jihatdan lirikaga xos xususiyatlar dramatik asarning emotsional quvvatini oshiruvchi poetik vosita hisoblanadi. Dramaturgiyada lirizmning yana bir muhim xususiyati uning estetik funksiyasi bilan bog‘liqdir. Lirik unsurlar asarning badiiy ohangini boyitadi, dramatik nutqqa poetiklik bag‘ishlaydi. Tomoshabin yoki o‘quvchi qalbida estetik ta‘sir uyg‘otadi. Ayniqsa she‘riy dramalarda lirizm dramatik harakatning ichki ritmiga aylanadi. Natijada drama faqat voqealar tizimi emas, inson qalbining badiiy manzarasi sifatida namoyon bo‘ladi. Zamonaviy dramaturgiyada lirizm oddiy hissiy bezak emas, balki dramatik tafakkurning tarkibiy qismi sifatida tasvirlanmoqda. Negaki bugungi drama insonning tashqi harkatidan ko‘ra uning ruhiy olamiga chuqurroq kirishga intiladi. Shu sababli dramatik asarlarda monologlar, poetik dialoglar, ramziy tasvirlar va ichki kechinmalar muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

She‘r–badiiy adabiyotning eng qadimiy va ta‘sirchan janrlaridan biri bo‘lib, unda insonning his-tuyg‘ulari, kechinmalari, orzu-intilishlari obrazli va ohangdor shaklda ifodalanadi. She‘riyat inson qalbiga estetik zavq berishi, fikr va hissiyotlarni chuqur aks ettirishi bilan boshqa adabiy turlardan ajralib turadi. She‘rning asosiy xususiyati uning ritmik tuzilishga ega ekanligidir. Unda vazn, qofiya, ritm va badiiy tasvir vositalari muhim o‘rin tutadi. Shoir ana shu vositalar yordamida o‘z fikrini ixcham, ta‘sirchan hamda obrazli tarzda ifodalaydi. Adabiyotshunos Bahodir Karimov yozganidek: “She‘r–tuyg‘u surati. Unda emotsiya, ramz, obraz, badiiy san‘at bo‘lishi kerak; she‘rda shoir subyekt, individual uslubi, “men”i, o‘z ovozi aks etishi lozim. Chin she‘rga qonuniyat tusini olgan bunday o‘nlab nazariy talablar qo‘yiladi. She‘r aytish “iste‘dodli va majnunsifat kimsalar qismati” ekan, uni hamma ham ayta olmaydi, aytishga majbur ham emas... Odamni har vaqt san‘at hayratga soladi; o‘quvchi nazmiy nafosatdan, she‘riy nazokat, rubobiy fasohatdan zavq oladi”⁷³. She‘rning badiiy kuchi undagi tasviriy vositalarda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga she‘r inson ma‘naviyatini boyituvchi, estetik didini shakllantiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Zero, “Lirikaning kishilarga badiiy ta‘sir kuchi o‘tkir va badiiy chuqurdir. Lirikaning otashin tili, mazmun va formaning

⁷² To‘lakov I. Hozirgi o‘zbek lirikasida davr va qahramon talqini. diss. T.:1994.16-b

⁷³ Karimov B. Ruhiyat alifbosi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.:2018.86-b



mukammalligi davrning uyg'unligi, qahramonliklari va insonlarning eng chuqur fikr, tuyg'ulari, e'tirozlarini kuylashga qobil"⁷⁴ligi bilan ahamiyatlidir. She'riy dramada ham yuqorida ta'kidlangan she'r imkoniyatlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Lirikada inson ruhiyati, vatanparvarlik, muhabbat va ezgulik g'oyalari yuksak badiiy mahorat bilan ifodalanadi. Lirikada inson qalbinning nozik kechinmalarini aks ettiruvchi, badiiy-estetik ahamiyatga ega bo'lgan adabiy tur hisoblanadi. U nafaqat his-tuyg'uni ifodalaydi, balki inson tafakkuri va ma'naviy dunyosini boyitishga xizmat qiladi. Yuqorida ta'kidlangan she'rga xos bo'lgan xususiyatlar dramada o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Qahramon portretini yaratishda, uning ichki dunyosini, o'y- fikrlarini tasvirlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Dramaturgiya va she'riyat azaldan bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan adabiy hodisa. Ayniqsa, she'riy dramada lirika va dramatik tasvir uyg'unlashib, inson ruhiyati, ichki kechinmalari hamda hayotiy ziddiyatlar badiiy jihatdan yanada chuqurroq ochib beriladi. She'riy dramada voqealar nafaqat harakat va dialog orqali, balki poetik ohang, obrazlilik va hissiy ifoda vositasida ham yoritiladi. Ta'kidlanganidek, lirika insonning ichki dunyosini, ruhiy holatini va hissiyotlarini ifodalashga xizmat qiladi. Dramaturgiya esa xarakterlar to'qnashuvi, konflikt va sahnaviy harakat

asosiga quriladi. She'riy drama ana shu adabiy turning imkoniyatlarini birlashtirib, o'ziga xos badiiy shakl hosil qiladi. Natijada dramatik asardagi qahramonlar ruhiyati yanada ta'sirchan va chuqur ifodalanadi. Lirik unsurlar dramatik asarda qahramonlarning monologlari, dialoglari va poetik nutqi orqali namoyon bo'ladi. Shoir-dramaturg qofiya, ritm, tashbeh va metaforalardan foydalanib, sahna tasvirining emotsional ta'sir kuchini oshiradi. Bu esa tomoshabin yoki o'quvchining qahramon kechinmalarini yanada chuqurroq his qilishiga yordam beradi. She'riy dramada lirika imkoniyatlari ayniqsa ichki konfliktlarni ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. Oddiy dramatik asarda voqea tashqi harakat orqali rivojlansa, she'riy dramada qahramon qalbidagi iztirob, orzu, muhabbat yoki fojiviy kechinmalar poetik tasvir vositasida yoritiladi. "Har bir adabiy janrning kashf etilgan va yuzaga chiqmagan bitmas-tuganmas imkoniyatlari bor"⁷⁵ligi ayni haqiqat. Shu sababli she'riy drama nafaqat sahnaviy asar, balki kuchli poetik-estetik hodisa sifatida ham qadrlanadi. Ta'kidlash joizki, lirika imkoniyatlarining dramaturgiyada ochilishi she'riy drama janrining badiiy qudratini belgilaydi. She'riy drama inson ruhiyatini poetik va dramatik uyg'unlikda tasvirlash orqali adabiyotning eng ta'sirchan janrlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

⁷⁴ Oybek.Adabiyot to'g'risida. Fan. T.:1985 14-bet

⁷⁵ Jo'raqulov U.Ko'zgu siniqlari yoxud aytilmagan so'z qudrati maqolasidan. Yoshlik jurnali. 2013-yil 5-sonidan



She'riy drama janri o'zida lirika va dramaturgiya xususiyatlarini uyg'unlashtirgan murakkab adabiy shakl ekanligi bilan xarakterlidir. Bu kabi asarlarda dramatik voqelik poetik nutq orqali ifodalanadi. Natijada asarda ham sahnaviy harakat, ham lirik ifoda birgalikda namoyon bo'ladi. Quyida fikr yuritmoqchi bo'lganimiz Abdulla Oripovning "Sohibqiron" she'riy dramasi ushbu uyg'unlikni tahlil qilish uchun muhim material bo'lib xizmat qiladi. Asarda lirika imkoniyatlari qahramon nutqining shaklida va mazmunida ko'rinadi. Dialog va monologlar faqat voqeani rivojlantirishga emas, balki qahramonning ichki holatini aks ettirishga yo'naltirilgan. Shu jihatdan asarda dramatik nutq lirik ifoda funksiyasini ham bajaradi. "Sohibqiron"da asosiy e'tibor Amir Temur obrazining ichki ruhiy olamini ochishga qaratilgan. Qahramon nutqida mas'uliyat, tarixiy burch, adolat va shaxsiy kechinmalar bilan bog'liq fikrlar birgalikda beriladi. Bu holat dramatik konfliktning ichki, psixologik darajada ochilishini ta'minlaydi. Lirik unsurlar dramatik strukturada monologlarning ustuvorligi orqali ham namoyon bo'ladi. Monologlar voqeani to'xtatib qo'yuvchi emas, balki qahramon ruhiy holatini tahlil qiluvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Natijada dramatik harakat psixologik mazmun bilan boyitiladi. Asardan olingan quyidagi misralarda she'riy asarga xos bo'lgan kayfiyat bilan birga, dramatik

obrazga xos vazminlik sinkret holatda akslantirilgan:

"Gap yurarmish go'yo Temur tabassum qilmas,

Go'yo menga xursandchilik, shodlik begona.

Har qadamda bilintirmay og'u sochguvchi

Mansabparast, g'ayur, battol, og'ri, firibgar,

Xushomadgo'y kimsalarni mahram sanaymi?

Yo ularga yaltoqlanib,

Tabassum aylab,

Ko'ngillarini ovlash uchun muqom qilaymi?

Men ularning yuragida ne kechmishini

Oyinaga boqqan kabi ko'rib turaman.

Odamlarning badnafs,

Yuxo og'izlariga

Tizgin solib,

Qamchin bilan titratmoq darkor".⁷⁶

Asardan olingan parchada lirika imkoniyatlari, avvalo, subyektiv ifodaning ustuvorligi bilan namoyon bo'ladi. Qahramon o'z atrofidagi ijtimoiy muhitni baholaydi va unga nisbatan shaxsiy munosabatini ifodalaydi. "Mansabparast", "xushomadgo'y", "firibgar" kabi baholovchi birliklar orqali ijtimoiy illatlar umumlashtiriladi. Bu holat lirikaning asosiy xususiyati—ichki

⁷⁶ Oripov A. Sohobqiron. Tanlangan asarlar. II jild. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. T.: 2001. 381-bet



kechinma va subyektiv munosabatning kuchayishini ko'rsatadi. Dramatik nuqtayi nazardan ushbu parcha monolog shaklida berilgan bo'lib, u syujet harakatini to'xtatmaydi, cheklamaydi, dramatik asar va qahramon imkoniyatlarini qisqartirmaydi. Aksincha, konfliktning ichki qatlamini ochadi. Qahramonning "ko'ngillarni ovlash uchun muqom qilaymi?" tarzidagi ritorik savollari uning ruhiy qarama-qarshiligini ifodalaydi. Lirik ifoda vositalari tasviriylik va emotsionallikni oshiruvchi omil sifatida xizmat qiladi. Parchada lirik vositalar individual kechinmadan umumiy xulosaga o'tish xususiyatini ko'rsatgan bo'lsa, dramatik jihatdan Amir Temur obrazi kuchli iroda va hokimiyat vakili sifatida tasvirlanadi. "Tizgin solib, qamchin bilan titratmoq darkor" kabi ifodalarda konfliktning keskinligi oshiriladi va qahramon xarakterining qat'iyiligini ochib beradi. Bu o'rinda dramatik nutq va lirik baholash bir-birini to'ldiradi.

"Davlat aslo tavakkalning mevasi emas

U raiyat,

Ya'ni xalqning g'uj irodasi.

Uning asos tayanchidir ushbu uch jihat,

Yagona shoh,

Mo'l xazina,

Yengilmas lashkar.

Siz askardan ayamangiz mol-u dunyoni,

Suyurg'amish bering unga,

Unvonlar bering.

Xasislarning qismatlarin yaxshi bilamiz.

Xazinani esa faqat raiyat qoplar".

"Sohibqiron"dan olingan yuqoridagi parchada davlat boshqaruvi va hokimiyat mohiyati haqidagi fikrlar poetik shaklda ifodalangan bo'lib, unda lirika unsurlari dramatik nutq bilan uyg'un tarzda namoyon bo'ladi. Avvalo lirikaning asosiy belgilaridan bo'lgan subyektiv-falsafiy umumlashtirish kuchli ifodalangan. Davlat tushunchasi poetik metafora va ramziy ifodalar orqali ochilgan. "Raiyat g'uj irodasi", "uch jihat-shoh, xazina, lashkar" kabi birliklar davlat tizimini obrazli tarzda tasvirlaydi. Bu esa lirikaning obrazlilik va ramziylik tamoyillarini namoyon qiladi. Shuningdek, parchada lirikaning ritmik va ohangdor nutq elementlari mavjud. Gaplarning qisqa, keskin va tartibli tuzilishi qahramon nutqining tantanavor va qat'iy ohangini hosil qiladi. Bu esa she'riy dramaga xos bo'lgan musiqiylikni yuzaga keltiradi. Monolog shakli orqali qahramon o'z qarashlarini bevosita muhokama qiladi. Bu esa dramatik voqelikdan ko'ra ichki falsafiy mushohadaga yaqinlashadi. Yuqorida nutq faqat axborot beribgina qolmay, estetik va emotsional ta'sir ham uyg'otadi. Ushbu parchada lirik unsurlar metaforik ifoda, falsafiy umumlashtirish, monologik nutq va ohangdor tuzilish orqali namoyon bo'ladi. Bu vositalar dramatik mazmuni chuqurlashtirib, asarning estetik va g'oyaviy ta'sir kuchini oshiradi. Shuningdek, muallif obraz



yaratishda ham yuqoridagi unsurlardan haqli foydalana olgan. Mutolaa davomida Amir Temur obrazi kitobxon ongida davlatchiligimiz tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan buyuk sarkarda sifatida muhrlanishi bilan bir qatorda, ko'nglidan haqiqiy inson tarzida ham joy oladi. Zero Gyote ta'biri bilan aytganda: "Agar inson tabiatan oliyjanob bo'lmaganida, u yer yuzidagi eng ulug' mavjudot bo'la olmasdi"⁷⁷. Darhaqiqat Abdulla Oripov yaratgan Temur obrazi tabiatan oliyjanob insonning badiiy nusxasidir.

Lirika insonning ichki dunyosini ifodalovchi adabiy tur sifatida talqin qilinadi. Unda his-tuyg'ular, ruhiy kechinmalar, qalb holati va individual hissiyotlar poetik shaklda tasvirlanadi. Lirik asarlarda voqeadan ko'ra insonning ichki olami, hissiy munosabati va ruhiy kechinmalari muhimroq ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan lirika emotsional ta'sirchanlik va poetik ifoda kuchi bilan ajralib turadi. Bu xususiyat she'riy yo'l bilan yozilgan dramalarda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan "Sohibqiron" dramasi Amir Temur o'y va mushohadalar girdobida tasvirlanadi. Davlat boshqaruvi, mamlakat mas'uliyati, oilaviy mojarolar-u yaqinlar xiyonati kabi bir-biriga qarama-qarshi vaziyatlarda ham o'zini yo'qotib qo'ymagan yetakchi, adolatli oila boshlig'i, so'zda sobit inson tarzida gavdalanadi. Har qancha irodali bo'lmasin kutilmagan holatlar inson

sifatida uni bir qadar toldirgan, o'ylashga va mushohadaga majbur etgan. Ana shu o'rinlarda muallif poetik mahorati va lirik unsurlar imkoniyati o'zi yaratayotgan qahramonini o'quvchiga yanada yaqinroq qilgan. "Sof lirik asar go'yo kartinaga o'xshaydi, lekin unda muhim narsa kartinaning o'zi emas, u bizda uyg'otgan sezgi"⁷⁸ ekanligini hisobga olganda biz so'z yuritayotgan dramada yaratilgan go'zal kartina ortida o'quvchini tarixiy haqiqat va badiiy talqin mushtarakligi vositasida yuzaga kelgan sezgi hayratlantirmasligi mumkin emas. Darhaqiqat, Temur obrazi Abdulla Oripov tomonidan shu qadar jonli tasvirlanganiki, o'quvchi "inson goh adolat, goh adovat qo'ynida"⁷⁹ ekanligiga amin bo'lmoqdan yiroq tushmaydi.

⁷⁷ Gyote V.Y. G'arb-u Sharq devonidan. Tafakkur jurnali. 2011-yil. 3-sonidan

⁷⁸ Belinskiy V. Tanlangan asarlar. Poeziyaning tur va xillarga bo'linishi. O'zbekiston SSR davlat nashriyoti. T.:1955. 141-b

⁷⁹ Normatov U. "Eng muhim muammo" maqolasidan. O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi. 2003-yil 12-soni



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. T.:2004.
2. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T.:2018
3. Oybek. Adabiyot to‘g‘risida. Fan. T.:1985
4. Belinskiy V. Tanlangan asarlar. Poeziyaning tur va xillarga bo‘linishi. O‘zbekiston SSR davlat nashriyoti. T.:1955.
5. Oripov A. Sohibqiron. Tanlangan asarlar. II jild. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. T.: 2001.
6. To‘lakov I. Hozirgi o‘zbek lirikasida davr va qahramon talqini. diss. T.:1994.
7. Jo‘raqulov U. Ko‘zgu siniqlari yoxud aytilmagan so‘z qudrati maqolasidan. Yoshlik jurnali. 2013-yil 5-Sonidan
8. Gyote V.Y. G‘arb-u Sharq devonidan. Tafakkur jurnali. 2011-yil. 3-sonidan
9. Normatov U. “Eng muhim muammo” maqolasidan. O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati gazetasi. 2003-yil 12-soni